

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.Arslonzoda, O.Maripov	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi	318
R.Urazova	
Avesto yashlarida Mitraning sifatleri	325
N.Nizametdinov	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
I.Burxonov	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
N.Jumaev	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan	342
D.Akramov	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Oripova	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
I.Baltayeva	
Adabiy vorisiylikning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
F.Oxunjonova	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida)	362
D.Uralova	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
S.Begmatova	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	370
A.Yuldashev	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi	374
O.Barziyev	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar	382
D.Sultonova	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
S.Alibekova	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati	392
Sh.Sherg'oziyev	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi	396
X.To'raxonova	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi	400
D.Hazratkuliyon	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida)	403
M.Narziqulov	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi	410
M.Mirzoyev	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari	420

TILSHUNOSLIK

Z.Alimova	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida	425
O.Nazirova	

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SO'Z TAVSIFI

ОПИСАНИЕ СЛОВО В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ АЛИШЕРА НАВОИ

DESCRIPTION OF THE WORD IN THE WORKS OF ALISHER NAVOIY

Yuldashev Anvarjon Mahammadjonovich¹¹Yuldashev Anvarjon Mahammadjonovich

— Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarida so'zga berilgan ilmiy, badiiy ta'rif va talqinlar tasnifini, o'ta serqirra va serjilo til (nutq) birligi bo'lgan so'zning hayotimizdagi beqiyos o'рни va muhim ahamiyatini shoir tafakkuri bilan o'ziga xos lisoniy hamda badiiy nuqtai nazardan tahlil etish mazkur maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad hisoblanadi. Maqolada Alisher Navoiy asarlarida izohlangan so'z va uning mantiqiy imkoniyatlarini chuqur o'rganish, so'zni noyob va ilohiy ne'mat sifatida qadrlash Yangi O'zbekiston taraqqiyotida milliy yuksalish shartlari hamda tilimizga oid ilmiy tadqiqotlar faoliyatining samarasi, kelajagimizni belgilab beruvchi asosiy omili ekanligi ta'kidlanadi. Jahon tilshunoslaridan birinchi bo'lib hazrat Alisher Navoiy tafakkuri xulosalarida til va nutq hodisalarining farqlanishi, lisoniy va badiiy jihatdan mazkur nutq birligi sifatida so'zning cheksiz imkoniyatlari, hayotni badiiy aks ettirishdagi o'ziga xos funksiyalari va so'zga butun borliqning ibtidosi sifatida urg'u berilishi tahlil qilinadi.

Аннотация

В трудах Низамиддина Мир Алишера Навои приводится классификация научно-художественного определения и толкования слова, несравненного места и значения слова в нашей жизни, являющегося очень красивой языковой (речевой) единицей. Подменяется мышлением поэта, анализ с конкретной лингвистической и художественной точки зрения является основной целью данной статьи. В статье проводится углубленное изучение слова и его логических возможностей, объясненных в произведениях Алишера Навои, оценка слова как уникального и божественного дара, условия национального роста в развитии Нового Узбекистана и результат научные исследования нашего языка, является главным фактором определяющим наше будущее. Алишер Навои первый мировой языковед который подчеркивал различие языковых и речевых явлений, безграничные возможности слова как языковой и художественной единицы речи, его уникальные функции в художественном отражении жизни, начало всего бытия и выводы мысли Алишера Навои будут проанализированы.

Abstract

In the works of Nizamiddin Mir Alisher Navoi, the classification of the scientific and artistic definition and interpretations of the word, the incomparable place and importance of the word in our life, which is a very beautiful and beautiful language (speech) unit, is replaced by the poet's thinking. Analysis from a specific linguistic and artistic point of view is the main goal of this article. In the article, an indepth study of the word and its logical possibilities explained in the works of Alisher Navoi, appreciation of the word as a unique and divine blessing, the conditions of national growth in the development of New Uzbekistan and the result of scientific research on our language, is the main factor determining our future is emphasized. Alisher Navoi, the first world linguist, emphasized the distinction between language and speech phenomena, the limitless possibilities of the word as a linguistic and artistic unit of speech, its unique functions in the artistic reflection of life, and the beginning of all existence in the conclusions of Alisher Navoi's thought. It will be analyzed.

Kalit so'zlar: so'z, nutq, ibtido, ruhparvar, ilohiy ne'mat, so'z ma'nosi, Alisher Navoiy, so'z mas'uliyati, so'z ijodkori, ko'ngil gavhari.

Ключевые слова: слова, речь, начало, духотворец, божественной дар, значение слова, Алишер Навои, ответственность слова, творец слова, жемчужина сердца.

Key words: word, speech, beginning, spirit, divine blessing, meaning of word, Alisher Navoi, responsibility of word, creator of word, gem of heart.

KIRISH

XXI asrda ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan bir vaqtda jahon hamjamiyati oldida axborotlashgan jamiyat va globallashuv muhiti sabab cheksiz-chegarasiz axborotlar oqimi hamda hayotiy jarayonlarning jadallashuvi yuzaga kelmoqda. Bu holat insonlar o'rtasidagi munosabatlarni turli shakllarda va turfa yondashuvlarda, o'ta serqirra, ziddiyatli hamda keng qamrovli ko'rinishlarda ifodalamoqda. Mazkur ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi vosita esa ijtimoiy ong mahsuli sifatida til yoki nutq birligi bo'lgan birgina so'zdir. Asrlar, zamonlar osha so'z o'z qudrati va ahamiyatini yo'qotmagan holda ijtimoiy jihatdan yuksalib bormoqda. Chunki har qanday

ADABIYOTSHUNOSLIK

tilning asosi soʻz, har turli fikrlar soʻz vositasidagina yuzaga chiqadi, insonlarga anglatiladi, insonlar tomonidan anglashiladi.

Darhaqiqat, dunyoning avvali soʻz bilandir. Borliq soʻz vositasida yaralgan va jamiyat soʻz vositasida munosabatga kirishadi, rivoj topadi. Har qanday til va adabiyot soʻzlardan tarkib topadi, tafakkur soʻzlar orqaligina harakatlanadi, rivojlanadi, yashaydi, qad-ru qimmat kasb etadi. Shuning uchun ham soʻz nutq birligi, badiiy ijodning eng muhim tayanchi, boyligi, asosiy manbasi hisoblanadi.

Soʻz amal daraxtining mevasidir. Chunki u amaldan tugʻiladi. Soʻzning vujudga kelishi – ilohiy. Yaratuvchi olamni soʻz bilan yaratdi va “Boʻl” deyishi bilan u ham boʻldi. Aynan shuning uchun ham dunyo xalqlarining diniy kitoblarida aytilishicha, soʻz dunyodagi barcha narsalarning asosida ibtidosidir. Yevropa adabiy muhitining vakili sifatida polyak adabiyotining tanikli namoyondasi Yan Parandovskiy taʼriflaganidek: “Soʻz – ulkan tilsimot. Barcha dinlar nutq qobiliyatini insonga hayot bilan birga beriladigan tovushlar, shakl-shamoyil va qonun-qoidalarning butun bir potentsialli boyligidan iborat Tangri inʼomi deb hisoblashgan” [16,189].

Yuqorida aytilganidek, soʻz oʻta serqirra va serjilo til yoki nutq birligi boʻlishi bilan birga badiiylilikning ibtidosi hamdir. Soʻz badiiy adabiyotda cheksiz qudrat va hayotni tasvirlovchi buyuk ifoda vositasi sifatida oʻrtaga chiqadi. Insondagi nozik tuygʻular, murakkab kechinmalar, koʻrib, eshitib, ushlab, iforini hidlab, taʼmini tatib boʻlmaydigan ruhiy holat tasavvurlarini birgina soʻz yordamida ifoda etish mumkin. “Soʻzning sehrliligi, moʻjizaligi va fusunkor kuchi uning tasavvurlar va obrazlarni yuzaga keltirish qobiliyatida aks etadi. U beshta sezgi orqali idrok qilinadigan narsa, voqea, hodisalarning koʻzga koʻrinmas vakilidir” [16,195].

Soʻz badiiy adabiyotning bosh ish quroli, asosiy materiali, borliqni ifodalovchi manbaidir. Shuning uchun ham badiiy adabiyot soʻz sanʼati deb taʼriflanadi.

Uzoq asrlar davomida soʻz taʼrifiga berilgan diniy-tasavvufiy, ilmiy, lisoniy va badiiy izohlar til yoki nutq birligi sifatida soʻz qirralarining keng imkoniyatlarini va ifoda qudratini tavsiflashga yoʻl ochdi. Biroq, oʻtgan ming yillikda “Shams-ul millat” nomiga munosib topilgan, nafaqat oʻzbek, balki butun turkiy madaniy muhitning daho va mutafakkiri hisoblangan hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning soʻz bobidagi fikrlari noyob va tahsinga loyiqdir. Asrlar osha “Gʻazal mulkingning sultoni”, “Soʻz mulkingning sultoni” deya eʼtirof etib kelinayotgan hazrat Alisher Navoiy dahosi buyukligining asl tayanchi ham soʻzdir. Alisher Navoiy soʻzning naqadar ulugʻvorligi, beqiyosligi, mantiqiy cheksizligini, ruhparvar, jonbaxsh neʼmat, ilohiyot mevasi ekanligini lisoniy zeboliklar bilan isbotlab bergan mohir soʻz sanʼatkoridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mumtoz adabiyotda soʻzning muqaddas sanalishi va uning asosida mukarram bir sanʼat turning vujudga kelishi soʻzga Yaratganning buyuk moʻjizasi va ulugʻ neʼmati sifatida munosabatda boʻlishdir. Soʻzga dunyoning ibtidosi deb qarash soʻz sanʼatkorlari oʻylab topgan hikmat emas, balki Yaratganning hukmi bilan ekanligini hazrat Alisher Navoiyning talqinlari orqali aniqroq ilgʻaymiz. Bu fikrlar shoirning “Xamsa” asaridagi “Sabʼai sayyor” dostonida oʻz ifodasini topadi:

“Soʻz kelib avval-u jahon soʻngra,

Ne jahon, kavnila makon soʻngra” [1,438].

Hazrat Navoiyning “Sabʼai sayyor” dostonidagi V bobda soʻz taʼrifi oʻz ifodasini topgan. Mazkur bobda shoir dunyo vujudga kelganidan buyon soʻz ham mavjudligini, soʻz insonni boshqa mahluqotlardan ajratib turishini, soʻz boldan totli, laʼldan ham rangdor ekanligini izohlab, soʻzning qudrati va sehri xususida qalam tebratadi: “Soʻz taʼrifida bir necha soʻz surmak va soʻz ahligʻa andin necha soʻz tegurmak va koinotqa taqaddumining sifoti, mumkinotqa taaxxurining isboti va oning pardasidin boshqa maoniy bikri jilvadin oriy va koʻngul kunjida mutavoriy erkanining izhori” [1,438]. Mazkur dostonning quyidagi satrlari orqali hazrat Navoiy Yaratuvchi yetti qavat osmon va yerni paydo qilishda birinchi marotaba “kun” – “paydo boʻl” soʻzini qoʻllaganligini, bu soʻzning qudrati va azamati ila dunyoning yaratilish ibtidosi shakllanganligini aytadi:

“Chunki mavjud boʻldi nuktai “kun”

Boʻldi mavjud toza, yoʻqsa kuhun” [1,438].

Hazrat Alisher Navoiyning 1499-yilda yozilgan “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari ham dastlab soʻz taʼrifi bilan boshlanadi. Asarning birinchi sahifasidagi ruboiyda yuqorida tilga olingan dunyo va borliqning yaralishi uchun asos boʻlgan soʻzning ahamiyati taʼkidlanadi:

“Ey soʻz bila qilgʻon ofarinish ogʻoz,
Insonni aroda aylagon mahrami roz.
Chun “kun fayakun” safhasigʻa boʻldi tiroz,
Qilgʻon oni nutq ila boridin mumtoz” [2,5].

Asarda muqaddas Qurʻonning Baqara surasiga tegishli boʻlgan oyat “...Va U Zot Odamga barcha narsalarning ismini oʻrgatdi” [21,6-7] mazmunidan kelib chiqib, barcha yaratilmish narsalarning ismi, nomi – soʻzlarini bilish Odam Ato orqali insonlargagina inʻom etilganligi va bu imkoniyat tufayli insoniyat butun nabobot va hayvonot dunyosida imtiyozga ega boʻlganligi taʻkidlanadi: “Subhonolloh ne qudrati komiladurkim, insonni “Xammartu tiynata odama biyadi arbaʻina sabohan” karimasi mazmuni birla “allam alasmao kullaha!” qobiliyati berdi va ani “al matakallim” ismi mahzari qildi. Va to ul bu mazhariyat sharafidin jamiʻi maxluqotqa sarafroz boʻldi va bu tashrif bila borisidin imtiyoz topti”[2,5].

“Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida hazrat Alisher Navoiy soʻzni durga tenglashtiradi. Qimmatbaho durning joylashgan oʻrni dengiz tubida boʻlsa, soʻzning joylashish oʻrni koʻngil goʻshasidadir. Soʻz shunday gavharki, uning daryosi koʻngildir va koʻngil shundayki, u idrokning barcha maʼnolarini oʻzida jamlovchidir. Dur dengiz tubidan chiqarilib, gʻavvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, koʻngildan olib chiqilgan soʻz ham uni qoʻllash qobiliyati va jilvalantirish mahoratiga qarab, notiqning qiymati belgilanadi. Dengiz qaʼrida yotgan durlar gʻavvos yordamida harakatga keltirilsa va jilvalansa, koʻngil tubidagi soʻzlar ham soʻzlovchi tomonidan nutqiy jarayonda oʻz jilvasini topadi: “... Soʻz durredurkim, aning daryosi koʻnguldur va koʻngul mazharedurkim, jomii maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar gʻavvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javhariga koʻra zohir boʻlur. Koʻnguldin dogʻi soʻz durri nutq sharafiga sohibi ixtisos vasilasi bila guzorish va oroyish koʻrguzur va aning qiymati ham martabasi nisbatigʻa boqa intishor va ishtihor topar” [2,7].

Alisher Navoiy mazkur asarida soʻzni taʼriflar ekan, soʻz gavharlarining tafovuti cheksiz va darajalari benihoyat ekanligini taʼkidlaydi. Shunchalikki, soʻz yaxshisidan jonsiz tanaga pok ruh baxshida va soʻz tubanidan tirik vujudga halokat yetadi: “Soʻz durrining tafovuti mundin dogʻi begʻoyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin oʻlgan badangʻa ruhi pok yetar, kasifidin hayotlik tangʻa zahri halok xosiyati zuhur etar” [2,7].

Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridagi ilk “Hayrat ul-abror” dostonida soʻzning taʼrif va tavsifiga butun bir bob bagʻishlangan. Mazkur dostonning oʻn toʻrtinchi bobidagi nasriy sarlavhaning oʻzidayoq shoir soʻzning inson vujudiga nurli ruh bagʻishlovchi va uni yorituvchi yorugʻ yulduz ekanligini, inson tanasi bir maʼdan boʻlsa, soʻz oʻsha tanadagi maʼdanning qimmatbaho javohiri ekanligini taʼkidlaydi: “Soʻz taʼrifidakim, bashar vujudi sipehrining kavokibi jahontobi va inson zoti maʼdanining javohiri serobi durur...” [3,35]. Yaʼni “Odamzod vujudi osmonining jahonni yoritar yulduzlari va inson zotiga xos boʻlgan konning behisob javharlari boʻlgan soʻz taʼrifida...” [5,18]. Hazrat Navoiy “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida soʻzni durga tenglashtirgani kabi mazkur dostonida soʻzni gavhar deya ulugʻlaydi va keyinroq bu fikridan qaytib, gavhardek qimmatbaho tosh ham soʻz uchun sadaf vazifasini bajara olmasligini, balki toʻrt sadaf, yaʼni anosir – suv, havo, tuproq, olov kabi borliqning asosiy unsurlari ham, yetti qavat osmon yulduzlarining burji ham soʻz ekanligini taʼkidlaydi:

“Soʻz guharigʻa erur oncha sharaf
Kim, boʻla olmas anga gavhar sadaf.

Toʻrt sadaf gavharining durji ul.
Yetti falak axtarining burji ul” [3,35].

Asarda hazrat Navoiy inson butun umri davomida soʻzga ehtiyojmand ekanligini, ijtimoiy ong va ijtimoiy borliqni soʻzsiz tasavvur etib boʻlmasligini goʻzal badiiy ifodalar bilan taʼriflaydi: “Soʻz jon boʻlib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. Soʻz dunyoda bor barcha koʻngillarning qutisidagi javhar, hammaning ogʻiz qutisidagi qimmatbaho gavhardir” [5,18]. Mazkur asarida shoir yozadi:

“Til bu chamanning varaqi lolasi,
Soʻz duraridin boʻlubon jolasi.
Soʻzdin oʻlukning tanida ruhi pok,

ADABIYOTSHUNOSLIK

Ruh dag'i tan aro so'zdin halok" [3,36].

Ya'ni til shu chamanning ochilgan lolasi bo'lsa, so'z durlari unga qo'ngan shabnamdir. So'z o'lgan odamning tanasiga pok ruh bag'ishlaydi va aksincha, so'zdan tanadagi tirik ruh halok bo'lishi ham mumkin. Hazrat Navoiy o'z satrlarida Tangri insonni sirlar xazinasiga darajasiga ko'targanligi uchun ham uni aziz va mukarram etganligini, insonni so'zlash qobiliyatiga ega qilib, uni boshqa jonzotlardan ortiq qilib yaratganligini zikr qiladi:

"Tengriki, insonni qilib ganji roz,

So'z bila hayvondin anga imtiyoz" [3,36].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'z asarlarida so'zni "dur, gavhar, javhar, inju, sadaf" kabi bebaho toshlarga tenglashtirar ekan, satrlaridan birida durning bir donasi bilan bog'liq gap va afsonaga ishonma, biroq so'zni jahon dengizidagi haqiqiy durdona deb bil, deya uqtiradi:

"Donai dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil" [3,37].

O'z davri adabiy muhitida "So'z mulkning sultoni" deya e'tirof etilgan hazrat Alisher Navoiy ijodining mahsuli bo'lgan "Nazm ul-javohir" asarida quyidagi to'rtlik keltiriladi:

"So'z durki nishon berur o'lukka jondin,

So'z durki berur jong'a xabar jonondin,

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhare sharifroq yo'q andin" [6,24].

Yuqoridagi satrlar orqali shoir so'zni inson bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiylik belgisi, nafaqat belgisi, balki ijtimoiylikning asosi deb biladi. So'z Yaratganning marhamati bilan ijtimoiy ong va tafakkur mahsuli sifatida insonni hayvonotdan ajratib turuvchi bebaho ne'matdir. Shuning uchun ham shoir yuqoridagi misralari orqali so'zni moddiylikdan – ijtimoiy borliqdan ustun qo'yadi. U butun nabobot va hayvonot dunyosidan birgina so'zni insonni individdan odamga, aqlu zakovati ila so'z va ma'no munosabatlarini anglagani uchun odamdan ma'rifatli insonga, tafakkur qilgani uchun yetuklikdan komillik sarhadlariga yetaklovchi bebaho manbaa sifatida tavsiflaydi. Hazrat Alisher Navoiy o'zining mazkur asarida ham so'zning qudrati so'zlovchi tomonidan qo'llanganida, ya'ni nutq jarayonida so'z ijobiylik, ham salbiylikka asos bo'lishini hayrat bilan tilga oladi: "Olloh, olloh! So'z marotibi tahqiqi ne balo daqiqdurkim, aning silkidagi javohir o'zin harfi tirziqqa yetkurur" yoki "So'z bog'i ajab gulistonedurkim, anda jonbaxsh atrliq ashjori mavzun va ruhparvar royihalik rayohini gunogun ko'pdurur va lekin foydasiz xasu xoshoki, balki zararliq xori haloki ham bordur" [6,25]. Biroq, hazrat Navoiy bu asarida ham butun borliq – arshu a'lo, jon baxsh etuvchi hislatlar, ma'nolar xazinasining duri va aksi ham so'z ekanligini takror va takror ta'kidlaydi:

"Rif'at aro favqi Arshi a'zam so'z emish,

Jonbaxsh dami Masihi Maryam so'z emish,

Ma'ni durri anda barcha mudg'am so'z emish,

Ulkim anga ma'ni o'lmag'ay ham so'z emish" [6,25].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'z ijodida, xususan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida so'z insonning jonsiz tanasiga pok ruh bag'ishlashi yoki tirik vujudga halokat yetkazishi mumkinligini, "Hayrat ul-Abror" dostonida so'z tufayli "o'lukning tanida ruhi pok" va aksincha inson ruhi "so'zdin halok" bo'lishini bildiradi. Ulug' mutafakkir ayni fikr va qarashlarini davom ettirib, "Mahbub ul-qulub" asarida so'z shunday jonbaxsh ne'matki, tinglovchining taniga jon kiritadi, ayni vaqtda so'zlovchining boshini yelga uchiruvchi hamdir deya izohlaydi: "So'z borkim, eshituvchi tanig'a jon kiyurur va so'z borkim, aytg'uvchi boshin yelga berur" [7,138]. Shuningdek, barcha yaxshiliklarning imkoni so'z tufayli yuzaga kelishini yozadi: "So'zdadir har yaxshiliqni imkoni bor, munda debdurlarki, nafasning joni bor" [7,102]. Shoir mazkur asarida so'z haqidagi o'z fikrlarini izohlab, so'z kabi nozik hilqat o'z ma'no qudrati bilan Yaratganning butun ne'matlariga nisbatan ishq va muhabbat o'tini baxshida etmas ekan, u foydasiz va jonsiz bir tanaga tengdir degan xulosaga keladi:

"So'zki ma'nisida ishq o'ti nishoni bo'lmag'ay,

Bir taharruksiz badan onglaki, joni bo'lmag'ay" [7,75].

Yuqoridagi mazmunga yaqin bo'lgan misralarni shoirning "Sab'ai sayyor" dostonida ham uchratamiz. Mazkur satrlarda hazrat Navoiy ilohiy ne'mat sifatida so'zni hayrat bilan ta'riflar ekan,

inson jisimidagi moddiylik bo‘stonining mevasi ham so‘z, inson ruhiyatidagi ma‘naviy daraxtning quyoshi ham so‘z ekanligini ta‘kidlaydi:

“Alloh, Alloh, ne so‘zdurur bu so‘z,
Mundun ortuq yana bo‘lurmu so‘z?!”

Jism bo‘stonig‘a shajar so‘zdur,
Ruh ashjorig‘a samar so‘zdur” [1,440].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jahon tilshunosligida til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlash va ularni ligvistik jihatdan alohida tadqiq etish masalasini g‘arb tilshunos olimlari ishlab chiqqanligi haqidagi fikrlar yaqin kunlargacha ma‘qullanib kelinar edi. Bu jihatdan tilshunos olimlar Vilgelm Gumbold va Ferdinand de Sossyur til va nutq munosabatlarini alohida o‘rganish lingvistik ta‘limotining asoschilari hisoblangan. Vaholanki, o‘bek adabiy tilining asoschilaridan biri va o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili hazrat Mir Alisher Navoiy bir necha asr oldin o‘z ijodida, xususan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida til va nutq hodisasini bir-biridan farqlagan holda so‘z ta‘rifini izohlaydi. Asarda shoir dengiz qa‘rida harakatsiz imkoniyat tarzida turgan noyob durlar g‘avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko‘ngil tubidagi cheksiz imkoniyat tarzidagi so‘zlar ham so‘zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o‘z jilvasini topishi ta‘kidlanadi. Ahamiyat bering, so‘z nutqiy jarayonda o‘z ifodasini topadi. Mazkur fikrni A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining professori, filologiya fanlari doktori B.Abdushukurov ham tasdiqlaydi: “Alisher Navoiy nemis tilshunosi Vilgelm Gumbold va shveysariyalik olim F.de Sossyurdan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlagan” [8,16].

Hazrat Alisher Navoiy qator asarlarida ilohiy ne‘mat sifatida so‘zni ta‘riflar ekan, uning jonbaxsh xususiyatga ega bo‘lgani kabi halokatli oqibati haqida ham so‘z yuritadi. Darhaqiqat, XX asrga kelib asli eronlik bo‘lgan nemis psixoterapevti Nossrat Pezeshkian inson ruhiyatini yo‘naltiruvchi va uning salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir etuvchi so‘zlar mavjudligini tibbiy jihatdan isbotlab berdi. Bu fikrlarni doktor N.Pezeshkian “tirik nutq” nomi ostida jamladi. Tirik nutq – bu insonlarning jismoniy organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir o‘tkazuvchi so‘z va iboralardir. Mazkur holat yuzasidan tilshunos olim M.Rahmonov o‘zining “So‘z va salomatlik” risolasida shunday yozadi: “So‘zlar – fikrlarimiz qobig‘i. So‘z energiyasi esa fikrlash energiyasidan bir necha marotaba kuchli bo‘lib, borliqni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Buni birinchi bo‘lib tanadagi kasalliklarni dasturlovchi so‘zlarni o‘rgangan nemis psixoterapevti Nossrat Pezeshkian aniqlagan” [9,15-16]. Tilshunos olim o‘z fikrlarini davom ettirar ekan, hazrat Navoiyning “so‘z guhari” qalblarga malham va yoki og‘u bo‘lishining tasdig‘i o‘rtaga chiqadi: “Agar nutq egasi fasohatu nafosatli, gapirganida dur misoli so‘zlaridan nuri ziyo taralib turadigan, ezgu qalbli inson bo‘lsa, uning so‘zlari har qanday dardu musibatga davo, yaralangan qalblarga malham, o‘ksik dillarga yupanch bo‘ladi. Bordi-yu, so‘z sohibi buning tamoman aksi bo‘lsa, uning so‘zi masrur qalbni g‘amli, tik boshni egik, xush kayfiyatni tushkun etuvchi og‘uga aylanadi” [9,40-41]. Olimning mazkur e‘tiroflari ham asrlar osha hazrat Navoiyning so‘z bobidagi daholigini, inson ruhiyatiga so‘zning ijobiy va salbiy ta‘siri haqidagi dastlabki qarashlari to‘g‘ri ekanligining dalilidir.

Azaldan g‘arb falsafasida so‘zga va uni ta‘riflashga nisbatan “kuch”. “qudrat”, “qurol” kabi tushunchalar ustunlik qilgan. Qadimgi yunon dramaturgi Menandr “So‘zdan kuchliroq narsa yo‘q” desa, Nobel mukofotiga loyiq topilgan fransuz yozuvchisi A.Frans “So‘zdan qudratliroq narsa yo‘q. So‘z orqali ifodalangan o‘tkir dalil va yuksak fikrlar safini yorib o‘tish mumkin emas. So‘z yovuzliklarni yakson etadi, qal‘alarni yiqitadi, u ko‘zga ko‘rinmas qurol” deydi. Rus adabiyotshunosi, davlat va jamoat arbobi A.F.Koni: “So‘z – insonning buyuk qurollaridan biri. O‘rnida, sidqidildan va vaqtida aytilgan oddiygina so‘z qudratli va yengilmas kuchga aylanadi” deya ta‘riflasa, atoqli rus yozuvchisi L.N.Tolstoy “So‘z bilan ifodalangan har qanday fikr ta‘sir ko‘lami tugamaydigan kuchdir” deb izohlaydi [10,165].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodida esa so‘z buyuk bir ilohiy ne‘mat, dur-u sadaf, inson ko‘nglining gavhari deya tavsiflanadi. Xatto, shoir o‘z satrlaridan birida agar til kuch va qudrat timsoli bo‘lgan bamisoli bir sovuq po‘latxanjar bo‘lsa, so‘z unga qadalgan qimmatbaho injulardir deya izohlanadi:

“Gar xud erur xanjari po‘lod til,
Sufti dag‘i injulari so‘zni bil” [3,35].

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov o'z vaqtida hazrat Alisher Navoiyni "Navoiy – so'zni malham deb bilgan daho" deya ulug'laydi. Uning fikricha g'arb tafakkurining ta'siri natijasida hazrat Navoiy nozik va o'ta noyob hilqat deb ta'riflagan so'zni kuch-qudrat quroli sifatida tushunish, so'z mulkining sultoni bo'lgan shoir g'oyalardan yiroqlashishga tengdir: "Aytadigan ma'ruza, yozadigan maqolalarimizda "mehr" so'zi kam, "qat'iy", "beshavqat", "prinsipial" degan so'zlar ko'proq uchraydi. Navoiy so'zni malham deb tushungan, biz uni qilich deb anglaymiz" [11,18]. Navoiyshunos olim Botirxon Akramov Mir Alisher Navoiyning so'z ta'rifi va so'z qo'llashdagi mantiqiy, badiiy va lisoniy mahoratini tahlil qilar ekan: "...Falsafiy mohiyat teranligi, badiiy ranginlik, betakror timsollar e'tibori-la Navoiy ijodxonasini – uning So'z dahosini faqat badiiyat qonunlari doirasiga sig'dirib bo'lmasa kerak?" deb yozadi. Olim hazrat Navoiyni: "So'zni kashf etuvchi ul Xoliqul qudrat oldida o'zi bunyod etgan mo'jizotu ajoyibot olami – ummon qa'ridan asl "durri samin" – "ma'ni guhari", "so'z guhari"ni axtarib topishga jur'at etgan..." [12,20] buyuk daho deb ulug'laydi.

Hazrat Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi "Sab'ai sayyor" dostonida insoniyat buyuk hayot yo'lida ekan, dahr aro doimo so'z bilan hamroh bo'lishini, bashariyatning quvonchu g'ami, yutug'u tashvishlari, zafar va mag'lubiyatlari, foni va boqiy dunyodagi istak, orzu-umidlari har vaqt so'z oshnoligida amalga oshishi, hayotning boshi ham, oxiri ham so'z va so'zdangina ikki dunyo saodati, najoti bo'lishini falsafiy mushohada qiladi. Taniqli adabiyotshunos olim Boqijon To'xliyev tavsif berganidek, hazrat Navoiy ta'rifiga ko'ra: "...So'z faqat ibtido emas, balki intiho hamdir, hatto intihogina emas, bu ikki qutb o'rtasidagi mavjudlik belgisidir" [13,12]:

"Har kishi dahr aro hayot topib,
So'ngg'i dam so'z bila najot topib.

Angla ul so'zni nuktayi tavhid,
Vahdat ahlida yo'q munga tardid.

Bas seni avval ul qilib zohir,
Sanga ham avval o'ldi, ham oxir.

Avval-u oxiringg'a solg'il ko'z,
Bil: ham avval so'z-u ham oxir so'z" [1,438].

Yuqoridagi kabi hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning so'z bobidagi ta'rif va tavsiflari sirasida butun borliq ichida so'zning "avvalg'i sado" va "har savtqa ibtido" sifatida kelishi, shoirning "Xamsa" asaridagi "Layli va Majnun" dostonida ham o'z ifodasini topgan:

"Kim, bo'ldi chu amri "kun" huvaydo,
Bo'ldi "fayakun" g'ulusi paydo.

Bas avvalg'i sado so'z o'lg'ay,
Har savtqa ibtido so'z o'lg'ay'.

Ey so'z, ne balo ajab guharsen,
Gavhar neki, bahri mavjvarsen.

Ul bahrki, muncha naqshi dilkash
Bir mavj ila ayladi munaqqash" [4,241].

Mazkur dostonida ham hazrat Navoiy alohida bir bobni so'z ta'rifiga bag'ishlagan. Xususan, "Layli va Majnun" dostonining V bobi quyidagi satrlar bilan boshlanadi: "So'z gavhari vasfidakim, gavhar so'zi aning qoshida gavhar odlida bir qatra suvdek bo'la olg'ay..." [4,240].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy ijodi ummon, ummon bo'lganda ham insonni ma'naviy kamolotga yo'naltiruvchi, ikki dunyo saodatiga eltuvchi ma'naviyat ummonidir. Mazkur ummonning sadaflarini ochib, ichidagi dur, inju va gavharlarini bir tizimga tizgan, noyob toshlarga ishlov berib, ularni jilvalantirib, qimmatbaho javhar darajasiga keltirgan mohir g'avvos hazrat Alisher Navoiyning o'zidir. Shoir insoniyat qalb va ko'ngil go'shasidagi ilohiy ne'matni, buyuk imkoniyatlarga boshlovchi so'zni noyob durdona darajasida yuksaltira oldi. U so'zni nazm va nasrda mohir qo'llab, bashariyat

ibtidosi, komillikka erishish asosi, zulm va razolat intihosi soʻz ekanligini isbotlab berdi va tom maʼnoda “Soʻz mulkining sultoni” ekanligini asoslab berdi.

XULOSA

Hazrat Alisher Navoiyning soʻz haqida bildirgan fikrlarining yigʻindisi va xulosasi sifatida soʻz — hayot va abadiyat kitobi, soʻz – dunyo ibtidosi, soʻz – ulugʻ ilohiy neʼmat, soʻz – jonbaxsh va ruhparvar xilqat, soʻz – koʻngil sadafining gavhari, soʻz – insonni insonlashtiruvchi shariflik belgisi, soʻz – pok ruhni halok etuvchi qurol, soʻz – najot, soʻz – mavjudlik belgisi... Soʻz insonga ato etilgan eng buyuk neʼmat, u tufayli inson barcha boshqa maxluqotlardan afzal boʻldi. Soʻz vositasida insonning fazilati, maʼnaviy darajasi namoyon boʻladi.

Mir Alisher Navoiy tavsifiga koʻra til xanjar boʻlsa, soʻz mazkur xanjarni bezab turuvchi gavhar, dur, inju kabi qimmatbaho javohirlardir. Inson til va nutqi bilan aziz va mukarram. Til yoki nutq esa bol kabi totli, laʼl kabi rangli soʻzlari, soʻz boyligi bilan yuksakdir.

Tilshunos olimlarning maʼlumotiga koʻra yer yuzida jami 7 mingdan ortiq til mavjud. Jahondagi 8 milliard kishi muloqot qiladigan bu tillarning bor yoʻgʻi 1% da, yaʼni 70 ta tilda dunyoning 90% aholisi muloqot qiladi. Milliy tilimiz hisoblangan oʻzbek tili ham dunyo aholisi koʻp gaplashadigan tillar qatorida boʻlib, tilimiz yuqoridagi 1%ning tarkibidadir. Darhaqiqat, hozirgi dunyo miqyosida 51 milliondan ortiq kishi, baʼzi maʼlumotlarga koʻra, esa 56 millionga yaqin kishi oʻzbek tilida gaplashadi [17].

Tilimizdagi mavjud soʻzlarni oʻzida jamlagan 2006-2008-yillarda 5 jildda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 80 mingga yaqin oʻzbek adabiy tilida keng isteʼmolda boʻlgan soʻz va soʻz birikmalari, fan, sanʼat, madaniyat va texnika sohalariga oid atamalar, shevalarda qoʻllanadigan hamda tarixiy soʻzlar mavjud [18]. Biroq, mazkur lugʻatda jamlangan va tilimizdagi mavjud soʻzlar miqdori yuzasidan yakuniy xulosa chiqarish munozaralidir. Chunki taniqli tilshunos olim, professor A.Rustamov fikriga koʻra oʻzbek tilida mavjud boʻlgan soʻzlarimiz besh yuz mingdan kam emas [19].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiyning soʻz boyligi va oʻz asarlarida qoʻllagan soʻzlari yuzasidan adibimiz Oʻtkir Xoshimov quyidagi maʼlumotlarni keltiradi: “Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin oʻz asarlarida 21 ming 197 ta betakror soʻz ishlatgan. Shekspir salkam 20 mingta, Servantes 18 mingga yaqin, Alisher Navoiy esa 1 million 378 ming 600 ta betakror soʻz ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, moʻgʻul va boshqa tillardagi soʻzlardan ham mahorat bilan foydalangan” [14,29].

Hazrat Nizomiddin Mir Alisher Navoiy oʻz asarlarida soʻzning poyonsiz kuch-qudratiga shunday yuksak baho beradiki, bu uning lisoniy qarashlari va tafakkur xulosalari markazida turadi. Shoir butun hayoti va ijodi davomida, barcha sheʼriy va nasriy asarlarida jahon ummonida durdona sanalgan soʻzning qadrini koʻtardi, soʻz deya atalmish bu durdonaning har biriga har yozganida yangicha maʼno, yangicha sayqal bera oldi hamda soʻz vositasida avlodlarga buyuk maʼnaviyat xazinasini qoldirdi. Badiiy publitsistikamizning taniqli vakili Bahodir Qobul yozganidek: “Navoiy goʻzal soʻzni, goʻzal soʻzning magʻzini oʻrgatadi. Soʻz qudratining quvvati qayerdan kelishini oʻrgatadi” [15,24.].

ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Sabʼai sayyor - Toshkent: SMI-ASIA, 2009. (Navoi A. Selected works. Sabʼai Sayor - Tashkent: SMI-ASIA, 2009.)
2. Navoiy A. Muhokamat ul-lugʻatayn - Toshkent: “Tafakkur”, 2014. (Navoi A. Muhokamat ul-lugʻatayn - Tashkent: “Tafakkur”, 2014.)
3. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Hayrat ul-Abror - Toshkent: SMI-ASIA, 2009. (Navoi A. Selected works. Hayrat ul-Abror - Tashkent: SMI-ASIA, 2009.)
4. Navoiy A. Tanlangan asarlar. Layli va Majnun - Toshkent: SMI-ASIA, 2009. (Navoi A. Selected works. Laili and Majnun - Tashkent: SMI-ASIA, 2009.)
5. Navoiy A. Hayrat ul-abror. www.ziyouz.com kutubxonasi. (Navoi A. Hayrat ul-Abror. www.ziyouz.com library.)
6. Navoiy A. Mukammal asarlar toʻplami. Oʻn beshinchi tom. Nazm ul-javohir - Toshkent: Fan, 1991. (Navoi A. Collection of perfect works. Fifteenth roof. Nazm ul-Javahir - Tashkent: Fan, 1991.)
7. Navoiy A. Mahub ul-qulub - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. (Navoi A. Mahub ul-Qulub - Tashkent: Youth Publishing House, 2018.)
8. Abdushukurov B. Soʻz sohibqironining qudrati - Jamiyat, № 5/2018. (Abdushukurov B. The power of the master of words - Society, No. 5/2018.)
9. Rahmonov M. Soʻz va salomatlik – Fargʻona, 2022. (Rahmonov M. Word and health - Fergana, 2022.)

ADABIYOTSHUNOSLIK

10. Voronov V. Tafakkur gulshani - Toshkent: G'.G'ulom, 1989. (Voronov V. Flower of thoughts - Tashkent: G. Ghulom, 1989.)
11. Vohidov E. Alisher Navoiy va zamondoshlarimiz - Yoshlik, № 2/1988. (Vahidov E. Alisher Navoi and our contemporaries - Youth, No. 2/1988.)
12. Akramov B. Navoiy ijodxonasi haqida suhbatlar - Jahon adabiyoti, № 2/2005. (Akramov B. Conversations about the work of Navoi - World literature, No. 2/2005.)
13. To'xliyev B., To'xliyeva D. Alisher Navoiy hayoti va ijodi - Toshkent: Bayoz, 2013. (Tokhliyev B., Tokhliyeva D. Life and work of Alisher Navoi - Tashkent: Bayoz, 2013.)
14. Xoshimov O'. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. www.ziyouz.com. kutubxonasi. (Hoshimov O'. Inscriptions on the border of the notebook. www.ziyouz.com. library.)
15. Qobul B. Til davlat otining tizginidir - Sharq yulduzi, № 5/2022. (Kabul B. Language is the rein of the state horse - Eastern Star, No. 5/2022.)
16. Parandovskiy Y. So'z kimyosi - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. (Parandovsky Y. Word chemistry - Tashkent: New generation, 2022.)
17. <https://kun.uz/news/2020/06/26>.
18. <https://uzreport.news.society.ozb...>
19. www.kh-davron.uz .
20. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati (I,II,III,IV jild) - Toshkent: Fan, 1985. (Explanatory dictionary of the language of Alisher Navoi's works (I, II, III, IV volumes) - Tashkent: Fan, 1985.)
21. Qur'oni karim ma'nolari tarjimasini. Tarjimon Abdulaziz Mansur. www.ziyouz.com kutubxonasi. (Translation of the meanings of the Holy Qur'an. Translator Abdulaziz Mansur. www.ziyouz.com library.)
22. Mo'minov, S. (2022). Alisher Navoi-about the State and its Governance. *EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE*.
23. Mirsobirovich, M. S. (2022). ISAJON SULTON "ALISHER NAVOIY" ROMANINING LINGVOPOETIK ASPEKTDAN O'RGANILISHI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 36-42.
24. Mirsobirovich, M. S. (2022). Linguopoetic Features of the Language of Isajan Sultan's Novel "Alisher Navoi". *International Journal of Culture and Modernity*, 17, 78-84.
25. Муминов, С., & Муминов, Ш. (2022). COMMUNICATIVE BEHAVIOR OF THE LEADER AND ITS STUDY IN THE SOCIOLINGUISTIC ASPECT. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА*, 3(4).

(Taqrizchi: S.Muminov – filologiya fanlari doktori, professor).